



**TURIZM SANOATINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNINI VA
SOHANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

Nasriddinov Diyorbek Abduvohid o'g'li¹

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 2-bosqich talabasi

Qo'chqarov Shoxrux Farrux o'g'li²

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 3-bosqich talabasi

Respublika Yosh turizm elchisi

Zakirova Sayyora Alimovna³

Ilmiy rahbar: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

o'qituvchisi, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (PhD)

¹⁻²⁻³Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7181077>

Hozirda mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish yo'lida olib borilayotgan siyosati doirasida mamlakatimizda oxirgi yillarda turizmni rivojlantirish uchun olib borilayotgan qator islohotlar natijasi o'laroq turizm sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rnini yildan yilga oshib kelmoqda. Turizmning rivojlanishi mamlakat uchun nafaqat iqtisodiyot shu bilan bir qatorda infratuzilma, xalqning yashash sharoiti, sifatli transport qatnov va logistika rivojiga ham o'z hissasini qo'shmasdan qolmaydi. Turizmni bunchalik tez rivojlanishiga asosiy sabab sifatida soha yuqori darajada ilmiy izlanishlar va katta hajmli investitsiyalar talab qilmasligi asosiy omildir.

Kalit so'zlar: turizm, turizm industriyasi, turistik mahsulot, ta'lim dasturi, turizm elchilari, xalqaro konferensiyalar, Boqiy shahar, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti.

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki bu soha mamlakatimiz uchun katta miqdorda investitsiyani jalb qilmasdan ham bu sohani tizimli tarzda rivojlantirishimiz mumkin. Boshqa sohalarda, jumladan havo, temiryo'l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo shahobchalari, mehmonxonalar barqaror rivoj topsa o'sha joyda turistik obyektlar mavjud bo'lsa bemalol turizmni rivojlantirish mumkin. Turizm sohasidagi mutaxassislarning fikricha, turizm 21-asrda dunyo miqyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozirda turizm dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Ya'ni oxirgi yillarda odamlarni dam olish uchun ko'p vaqt sarflayotganlaridan shuni xulosa qilgan holda turizm istiqbolli sohalardan biri. Bu soha dunyo sanoati va qishloq xo'jaligidan o'zib ketgani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Turizmning bunday tez rivojlanishiga yana bir muhim sabab va omil sifatida, soha yuqori darajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini (научоёмкий) va quvvatni ko'p sarf qiladigan (энергоёмкий) texnologiyani talab qilmasligidadir.





Biroq, turizm boshqa sohalarni rivojlantirishiga sabab bo'lmagan qolmaydi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko'pgina xizmat ko'rsatuvchi sohalar bir-biri bilan uzviy bog'liq tarzda rivoj topishi lozim. Turizm ko'proq foyda keltiruvchi soha bo'lganligi tufayli ko'plab davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e'tibor va sarmoya kiritmoqdalar. Ular yangidan yangi mehmonxonalarni qurmoqda, eskilarini qayta ta'mirlanmoqda, asosiy maqsad esa ularni ham jahon standartlari talablariga moslashtirish. Maqsad turizm sohani rivojlantirib katta foyda olishdir. Bu esa o'z navbatida, raqobat muhiti turizmni rivojlantirish uchun eng muhim omillardan biri bo'ladi. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalar davri jarayonida qariyb barcha mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Mazkur sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'siri nafaqat valyuta tushumi, yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadriyatlar saqlashnishing bosh omilidir.

Dunyo bo'yicha 2014-yilda sayohat va turizm 7,6 trillion AQSH dollari, ya'ni umumiy YaIMning 10 %i va 277 million ish o'рни (har 11ta odamdan 1 kishi turizm sohasida ishlaydi) ga teng bo'ldi. Yaqin yillarda turizm dunyo miqyosida avtomobil sanoati, moliyaviy xizmatlar va sog'liqni saqlashga qaraganda tez suratlarda rivojlanmoqda natijada bu sohada yangi istiqbollar borligini ko'rsatib beradi. Oxirgi yillar ham bundan mustasno bo'lmadi. Xalqaro turistlar tashrifi 1,14 mlrdga teng bo'ldi va bu ko'rsatkichning 46 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston ham bu sohada yuqori o'sish suratlari qayd etdi. Biz bilamizki, O'zbekiston turizm sanoatida katta imkoniyatga ega davlatlardan biridir. Hozirda kunda mamlakatimizda 4200 dan ortiq tarixiy obidalar va muzeylarimizda 2 milliondan ortiq qadimiy eksponatlar saqlanayotgani fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, Respublika bo'yicha jami 600 ga yaqin sayyohlik kompaniyalari, tur operatorlari faoliyat yuritmoqda. Mintaqamizdagi tarixiy obyektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 dan ortiq xalqaro sayyohlik yo'nalishlari sayyohlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bu yo'nalishlarning 60 dan ortig'i tarixiy madaniy meros obyektlari, 30 taga yaqini tabiiy dam olish maskanlari, 15 tasi sog'lomlashtirish maskanlari va shu bilan birgalikda turizm maskanlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'nalishlardir. Hozirda yurtimizda 70 mingga yaqin o'ringa ega bo'lgan 600 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglarda sayyohlarga xalqaro standartlar bo'yicha xizmat ko'rsatilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy hayotida turizm sanoatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Turizm





iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mamlakatga katta daromad keltiradi, yuqori valyuta tushumini ta'minlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi. Albatta turistlarga xizmat qilish va ular vaqtincha dam olishi uchun mehmonxonalar kerak bo'ladi. Bu yerda ular ovqatlanadilar, turli tomoshalarga kiradilar va ularda qatnashadilar. Ko'plab hollarda ular xorijiy turistlar bo'lsa, valyuta tushumining oshishini ta'minlaydi va bu iqtisodiy zaxiralarni ham oshirmasdan qolmaydi. Turizm ham iqtisodiy, nhamda muhim ijtimoiy soha hamdir. Buning iqtisodiy jihatdan samaradorligi bilan birga ma'naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta kasb etadi.

Shuning uchun ham ushbu sohaga davlat alohida katta e'tibor berib, ma'lum imtiyozlar ham belgilab beradi. Odamlar bu kabi imtiyozlardan faqat turist bo'lganliklarida ham foydalanishlari mumkindir. Bunday holatlar ham turizmning o'ziga xos xususiyati va katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi. Imtiyozlar turistlarning bojxona postlaridan o'tishda, soliq to'lashda, chetga chiqishda pasportiga ruxsat berishlarida, havo va temir yo'l transportlariga chiptalar olishda, ularni rasmiylashtirishlarda namoyon bo'ladi. Turizmning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bo'lib, ular ish bilan ta'minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda boladilar va ularning turli an'ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyati ega bo'ladilar, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o'zlarining an'ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va unitilganlarini tiklaydilar, mehmon kutishning jozibador an'analarni tiklash bilan birga mehmondorchilik odoblarini takomillashtirib boradilar. Oxir oqibatda mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi ham muttasil o'sib boradi.

Turizmning rivojlanishi mamlakat uchun nafaqat iqtisodiyot shu bilan bir qatorda infratuzilma, xalqning yashash sharoiti, sifatli transport qatnov va logistika rivojiga ham o'z hissasini qo'shmasdan qolmaydi. Xususan, turizmni rivojlantirish evaziga o'z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi, davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishini ta'minlaydi, tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi, xalqlararo aloqalarga erishadi, madaniy aloqalar kengayadi, valyuta tushumi ko'payadi va boshqalar.

Turizm mahalliy aholi hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijobiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ish o'rinlarini yaratilishi;

☑ daromadni oshishi, mahalliy aholini yashash darajasini yaxshilanishi;





- ☐ urbanizatsiyalanish jarayonini tezlashishi, infratuzilma, madaniyat tashkilotlarini rivojlanishi;
- ☐ ijtimoiy va madaniy jarayonlarning tezlashishi;
- ☐ mahalliy madaniyat o'choqlarining yaratilishi, xalq og'zaki ijodiyoti, an'analari, qadriyatlari va rusumlarini rivojlanishi;
- ☐ qishloq xo'jaligi mahsulotlariga va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga ichki talabni oshishi;
- ☐ mahalliy madaniy meros yodgorliklarni tiklanishi va muhofazasi;
- ☐ tabiiy komplekslarning kengayishi;
- ☐ mintaqa mamlakat jozibadorligini oshishi;
- ☐ mahalliy madaniy hayotni jonlanishi;

O'zbekistonda turizmning rivojlanish holatlarini tahlil qilar ekanmiz, yurtimizda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor oshganini va tashrif buyuruvchilar salmog'i sezilarli darajada oshganini ko'rishimiz mumkin. Natijada esa O'zbekiston ham xalqaro turizm bozorida o'z o'rnini mustahkamlayotganidan dalolatdir. O'zbekistonning 70 foiz hududlarini cho'l va adir mintaqasi egallaydi. Mamlakatda hozirda 50 dan ortiq turistik resurs ro'yxatga olingan. Bu resurslar 14 ta alohida-alohida tabiiy ko'rinishlarda ekanligi, bepoyon cho'l tabiati, cho'l hududlari xalqi hayoti, cho'l hududlarining o'simliklar olami va hayvonot dunyosidan mahalliy turizm va xalqaro turizmni rivojlantirishda foydalanilsa turistlar oqimini yanada oshirish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Agar mamlakatda ushbu sohani rivojlantirish davlatning chekka hududlarida ko'proq turistik maskanlarning yaratilishi va ularning tizimli tarzda tashrif buyuruvchilar ehtiyojini qondirish uchun yangicha tizimlar ishlab chiqilishi bu sohaning rivoji bo'lib xizmat qiladi.

Oxirgi yillarda turizm sohasining isloh qilinishi va xorijiy tajribalarni qo'llash uchun sohada ko'plab loyihalar amalga oshirilyapti va natijada tarixiy maskanlar va ularga yaqin bo'lgan turistik manzillarda yangicha tartibdagi, odamlarni o'ziga torta oladigan bir nechta loyihalar amalga oshirilayotganligi buning yaqqol misolidir. Bunga misol sifatida 23-avgust kuni Samarqand shahrida ochilgan "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazining ochilish marosimi o'tkazildi. Aytilishicha, Samarqand — milliy davlatchilikka asos bo'lgan, tarixdagi har ikki Renessans davrida ham muhim o'rin tutgan shahar. Shu boisdan ham sayyohlar va tashrif buyuruvchilar bu yerga asosan qadimiy obidalarni ko'rish va tabarruk joylarni ziyorat qilish uchun keladilar. Turizmning boshqa yo'nalishlari uchun zamonaviy majmualar yo'q edi.





2019 yilda prezident tashabbusi bilan katta ambitsiyali loyiha boshlandi — Samarqand tumanidagi eshkak eshish kanali bo'yida 200 gektardan oshiq maydonda ulkan majmua qurishga kirishildi. Avvalo, tajribali me'mor va muhandislardan iborat xalqaro jamoa shakllantirilib, puxta loyiha ishlab chiqildi. Bunyodkorlik ishlarida sifatli xomashyolar va malakali quruvchilar bilan birga Turkiya, Buyuk Britaniya, Italiya kabi davlatlarning yetuk mutaxassis ekspertlari ishtirok etganligi ham bu sohadagi tub burilish qila olishining yaqqol misolidir. Bu ko'p tarmoqli markaz tarkibida 8 ta zamonaviy mehmonxonona, Kongresslar zali, «Boqiy shahar» majmuasi, amfiteatr va ko'plab boshqa inshootlar bor. U yiliga 2 million turistga xizmat ko'rsatishga erishga ham juda kata natijadir. «Bu ulkan markaz buyuk ajdodlarimizning barpo ettirgan muhtasham me'moriy obidalarga munosib bo'lib, ularning tarixiy an'alarini davom ettiradi. Ushbu majmua mamlakatimizda hozirgi paytda poydevori qurilishi boshlangan Uchinchi Renessans va oldingi tarixiy davrlar o'rtasidagi asosiy, tarixiy, kata bir ramziy ko'prik bo'ladi, deb ishonaman», — deya prezident ta'kidlab o'tgan. Markazga «Buyuk ipak yo'li» deb nomlanganida ham chuqur ma'no bor. Bu yerda o'sha davrni eslatuvchi tarixiy manzaralar aks ettirilgan. Masalan, «Boqiy shahar» majmuasi bezaklarida qadimiy Afrosiyob devorlarida saqlanib qolgan So'g'd davlati hukmdorining Koreya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlar elchilarini qabul qilish marosimlari kabi tarixiy hodisalar tasvirlaridan foydalanilgan. Markazda qadimiy bozor, mamlakatning barcha hududlariga xos 40 ga yaqin hunarmandlik ustaxonalari tashkil etilgan. U yerda hunarmand ustalar yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish kabi jarayonlarini sayyohlarga namoyish etadi. Bu mamlakatda sayyohlik industriyasini rivojlantirish borasidagi ulkan ishlarning bir qismidir. Ushbu turizm markazi kelgusi yillarda Samarqandga keladigan xorijiy sayyohlar sonini 1,5 milliondan oshirishda muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, kelgusi besh yilda mamlakatimizga keladigan sayyohlar sonini hozirgi 2 milliondan 9 millionga yetkazishdagi maqsadimizga erishish yo'lida qilingan loyiha sifatida ko'rishimiz mumkindir. Eng muhim tomoni shundaki, turizm sohasida mehnat qilayotganlar soni 500 mingdan oshishi ham nazarda tutilgan. Shuningdek, bu yerdagi zamonaviy mehmonxonalar va Kongresslar zali yirik anjumanlar o'tkazish uchun ham sharoit yaratadi. Yaqinda Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar rahbarlari uchrashuvi kabi katta nufuzli xalqaro tadbirlar shu yerda bo'lib o'tishi ham alohida bir ramziy ma'no baxsh etadi. Kelgusi yilda esa, qadimiy shahrimizda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruv Kengashining yillik yig'ilishi va Jahon





turizm tashkilotining bosh assambleyasi ham o'tkazilishi nazarda tutilyapti. O'z navbatida bular turizm sohasini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi deb baralla ayta olamiz.

Keyingi yillarda olib borilgan sohaviy islohotlar va ularning amaldagi natijalari orqali shuni ta'kidlash joizki mamlakatning bugungi turizm salohiyati, uning keying yillardagi istiqbollari natijasida turizm sohasi orqali turli xil sohalarni rivojlantirishga erisha olamiz.

Adabiyotlar ro'yxati (references):

1. Mirzayev M. A., Aliyeva M. T. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011.
2. Файзиева С. Х. Основные направления развития туризма в Узбекистане. // Экономический вестник Узбекистана. № 3-4, 2004.
3. Ж. К. Бектурдиев. — Молодой ученый. — 2016.
4. Eshtaev A.A., Norchaev A.N., Ruziev S.S. O'zbekiston Respublikasida turizm xizmati va servis sohasini rivojlantirish yo'llari. T.: TDIU, 2007.
5. Manba: "Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari, Samarqand-2014
6. www.moluch.ru
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/24/tourist-center/>
8. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism>

